



БИОЛОГИК ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА О‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

I.T. Azimov - Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

N.I.Mirzaeva – Низомий номидаги ТДПУ мустақил тадқиқотчиси

M.I.Toshpulatova- Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Аннотация

Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatchini rivojlantirish bo‘yicha prezentimizning farmonlariga asoslanib o‘quvchilarning biologiya darslarida tadbirkorlik elementlarini takomillashtirishga qaratilgan ma‘lumotlar o‘z aksini topgan. Maqolada tadbirkorlikni amalga oshirishning o‘quvchilarning bilish faoliyati rivojlantirishdagi ta‘lim - tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, milliy tarbiya, tadbirkorlik, kasb, ekskursiya, zamonoviy texnologiya, fermer, qishloq xo‘jaligi.

Аннотация

В данной статье отражена информация, отражающая совершенствование элементов предпринимательства у учащихся на уроках биологии, обозначенных в указах нашего президента о развитии предпринимательской деятельности. В статье освещено учебно-воспитательное значение применения предпринимательства для развития познавательной активности студентов.

Ключевые слова: образование, национальное воспитание, предпринимательство, профессия, экскурсия, современные технологии, фермер, сельское хозяйство.

Annotation

This article reflects information reflecting the improvement of the elements of entrepreneurship among students in biology lessons, indicated in the decrees of our president on the development of entrepreneurial activity. The article highlights the educational significance of using entrepreneurship for the development of students' cognitive activity.

Key words: education, national education, entrepreneurship, profession, excursion, modern technologies, farmer, agriculture.

2024 yilni “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” deb e‘lon qilinishi, O‘zbekiston yoshlariga tadbirkorlik faoliyati bilan foydalanishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Bu esa ta‘lim jarayonida ham o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatga yo‘llash, ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarni tadbirkorlikka yo‘llash muhim ekanligini ko‘rsamoqda.

“O‘zbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirish “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini 4 bandida yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi, 2024 yil 1 iyundan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi, yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla - tuman - viloyat - respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g‘oyalari saralanadi. Bunda, respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratilishi, g‘olib bo‘lgan biznes loyiha va g‘oyalar egalari Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborilishi haqida Prezidentimiz farmoni yoshlar jumladan maktab o‘quvchilarini ham o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishga yo‘naltiradi va yoshlarni tadbirkorlikka bo‘lgan ishtiyoqlarini yanada oshiradi[1].

Dasturda keltirilgan yosh tadbirkorlilarni qo‘llab quvvatlash haqidagi fikrlar yurtimiz o‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur kasbiy sifatlarni rivojlantirish va ishlab chiqarishni tashkil etish sohasida bilim va ko‘nikmalarni tarkib toptirish, kasbiy-mehnat ta‘limi va kasbga yo‘naltirish jarayonida tadbirkorlik faoliyatiga jadal tayyorlashga doir ilmiy izlanishlar olib borishni yanada rivojlantiradi. Ayniqsa, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam ko‘rsatish uchun ta‘limiy muhitni strukturalashtirish va qo‘llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish, tadbirkorlik



ta’limini joriy etishning faoliyatga yo‘naltirilgan, o‘quv fani sifatida, modulli, umumta’limiy yondashuv modellaridan samarali foydalanish, biznes asoslari va tadbirkorlik amaliyotini o‘rgatishga doir ta’limiy dasturlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, har bir o‘quvchini tadbirkorlik bilan shug‘ullanishning fundamental asoslarini egallashi, tadbirkorlik faoliyatiga doir amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishiga erishishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonlari tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan juda katta vazifalarni qo‘ymoqda.

Prezidentimizning farmonlari va uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi ma’ruzalarida hozirgi vaqtda maktablarimizning eng jiddiy kamchiligi hayotdan ma’lum darajada ajralib qolishidan va o‘quvchilarning tadbirkorlik bilan bog‘liq amaliy ishlarga yetarlicha tayyorlanmayotganligidan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tmoqdalar [1.2019].

O‘quvchilarning fanga shu bilan birga kasbga va tadbirkorlikka yo‘llash texnologiyalarini maktab amaliyotiga tatbiq etish orqali, bu masalani yechimini topish mumkin.

Hozirgi davrda ta’limni tadbirkorlik bilan uyg‘unlashtirish, xalq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi va fermerlar faoliyatini shakllantirishda ilmiy, psixologik va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik elementlari umum ta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar tizimidan o‘rin olishi shakllanib borayotgan yosh avlodni hozirgi zamon ishlab chiqarishining eng muhim tarmoqlarini nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish imkonini beradi[3.80-b. 2011.]

Hozirgi ilm-fan, texnika va sanoat jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy, ekologik holat munosabatlari o‘rganilib borilayotgan vaqtda maktablarda biologiya fanini mazmun jihatdan yangicha o‘qitish (STEAM yondashuvi) ham zaruriyat, ham zamon talabidir. Shu bilan birga biologiya ta’limi jarayonida raqamli texnologiyalar joriy etish etishning zamonaviy usullarini tatbiq etish ta’lim tizimini tashkil etish va o‘quvchilarda tadbirkorlikni shakllantirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi[2].

Biologiya fanining ahamiyati uning fan-texnika va texnologiya taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va kundalik hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

Umumta’lim maktablari MO‘Dda keltirilgan 7-11 sinflarida biologik ta’lim asoslarini o‘rganishda ayniqsa tirik organizmlarning xilma-xilligi, o‘simliklar va hayvonot olami, o‘simlik va zamburug‘larni ko‘payishi, genetika va seleksiyaga oid mavzularini o‘qitishda o‘quvchilarni tadbirkorlikka yo‘llash orqali kasbga yo‘llashni amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi.

O‘qituvchi har bir fanni o‘qitganda o‘quvchilarga ishlab chiqarishning ilmiy asoslari to‘g‘risida tushuncha berishi, ya’ni, sanoat ishlab chiqarishning fizika, ximiya, geografiya, bionika, chizmachilik, matematika, kibernetika qonunlariga; qishloq xo‘jaligiga bog‘liq ishlab chiqarishni esa biologiya va kimyo fanlari qonunlariga asoslaganligini ko‘rsatib berish lozim.

Biologiya, matematika, kimyo, geografiya fanlarini o‘qitishda sinfdan – sinfga o‘tgan sari ularning asosiy mazmunlari bayon etilganda, har bir mavzu mazmuniga imkon darajada o‘quvchilarning tadbirkorlik va kasbga yo‘llash uchun ishlab chiqarishning yoki fermer ho‘jaliklarini yutuqlari haqidagi ma’lumotlar bilan nazariy va amaliy jihatdan tanishtiradigan bilimlar manbai bilan boyitish orqali o‘quvchilarning tadbirkorlik bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan darajada oshiriladi[4.35-b.2017].

Milliy o‘quv dasturida ko‘rsatilgan fan asoslari jumladan biologiya fan asoslarini o‘quvchilar tushunib olishlari uchun turli xil ta’lim texnologiyalari va ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish bilan bir qatorda tajribalar namoyish etish, turli slaydlar, fan yutuqlarini o‘z ichiga olgan o‘quvchilarni tadbirkorlik va kasbga yo‘llaydigan video va kinofilmlarni namoyish etish, imkon bo‘lsa qishloq xo‘jalik maxsulotlari vistavkalari va unda namoyish etilayotgan serhosil nav va zotlar haqidagi filmlardan parchalar ko‘rsatish lozim. Ko‘rgazmali qurollar va namoyish etilayotgan ilmiy filmlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi, shuningdek fan va texnikaning erishgan yutuqlari bilan birga tadbirkorlar, fermerlarning yutuqlarini ham aks ettirishi lozim.



Maktab o‘quvchilarida biologiya fanlaridan tadbirkorlikka bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘qitish shakllaridan ekskursiyalarning o‘rni juda katta ahamiyatga ega. Ekskursiyalarda fan yutuqlarining ishlab chiqarishga tatbiq qilinishini o‘quvchilarga yaqqol ko‘rsatib berish imkonini beradi. O‘quvchilarda mehnat madaniyatini va ta’lim jarayonida ishlab chiqarishga bog‘liq tadbirkorlik elementlarini to‘g‘ri tashkil etilishi o‘quvchilarda tadbirkorlik sohasida oila byudjetiga keltiriladigan foydani ko‘rsatib berish mumkin.

Umumta’lim maktablari ish amaliyotida kinofilmlar va videofilmlarni namoyish etish o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Kinofilm va videofilmlar orqali o‘quvchilarni yuksak fan yutuqlarini o‘zida aks etgan texnika yutuqlari, ishlab chiqish maxsulotlari, qishloq xo‘jalik maxsulotlarini va fermerlarni dunyo miqyosida erishayotgan yutuqlarini va udar faoliyatini qanday tashkil etayotganlarini namoyish etish mumkin. Shuningdek ilg‘or maktablarda ta’lim tarbiya jarayonlari va ulardagi dars jarayonlarini o‘rganishda videolardan keng foydalanish imkonini beradi. Shu bilan yosh tadbirkolarning ish jarayonini ham tanishtirish va targ‘ibot qilishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilar tomonidan bajariladigan amaliy ish ko‘rinishidagi uy vazifalari ularda tadbirkorlik elementlariga bog‘liq bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda g‘oyat muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa biologiya fanlaridan uyda bajariladigan amaliy ishlar bu jarayonda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Albatta o‘quvchilarni tadbirkorlikka yo‘llovchi bunday tadbirlar zamonaviy fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari yoritiladigan asarlar va maqolalarni – texnikani takomillashtirishga, sermaxsul zot va navlarni o‘ziga xos tomonlari va ularni parvarish qilish usullari hamda biznes rejalar bilan tanishtirib borish bilan birga amalga oshirish lozim. Bunday adabiyotlarda ishlab chiqarish, maxsulotlar yaratishga oid ilmiy ma’lumotlar va ilmiy qonuniyatlar hamda pritsiplar haqida, fermer ho‘jaliklarining ilg‘or tadbirkorlari erishgan yutuqlari haqida ma’lumot beriladi.

O‘quvchilarni tadbirkorlik masalalariga doir adabiyotga qiziqtirish, va ularda bu adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. O‘quvchilar tadbirkorlikka oid qo‘llanmalarni mustaqil o‘qib tushuna oladigan va amaliy ishlarida bu qo‘llanmalarni ishlata biladigan bo‘lsinlar.

Ammo fanning turli sohalaridan nimani qachon va qaerda amaliyotda qo‘llash mumkinligini o‘vuvchilarga faqat nazariy jihatdagina ko‘rsatish kifoya qilmaydi. Maktabdagi biologiya, fizika va kimyo xonalarining ishini, maktab tajriba uchastkasidagi, issiqxonalaridagi va tirik tabiat burchagidagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish va ularda davlat dasturida ko‘rsatilgan barcha laboratoriya va amaliy ishlarni olib borish lozim. buning natijasida o‘quvchilar tadbirorlik ta‘limi talablarini ta‘minlay oladigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari mumkin.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni “O‘zbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirish “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” тўғрисида

2.Hasanboeva O., Artikova M., Mamajonov M. Oilada o‘smirlarni tadbirkorlikka tayyorlashda moddiy va ma‘naviy hayot uyg‘unligi / –T.: «Fan va texnologiya», 2011. – B.80.

3.Shaxmurova G.A., Azimov I.T., Rahmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. Toshkent 2017 35-bet

4.Ergashevich, R. U. (2018). A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises. European science review, (3-4), 225-227.

5.Sultonova N.B. The educational and upbringing role of improving entrepreneurship skills in students. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No.4, April 2023 ISSN: 2660-5589

6.Rakhmatov, U. E. (2018). Development of creative abilities of pupils under using tasks and problems in biology lessons. In XLIII international scientific and practical conference" international scientific review of the problems and prospects of modern science and education" (pp. 112-113).

7. Omonkulov, U. (2024). Methodology for working with gifted students. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы

социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(2). https://doi.org/-10.47390/PR1342_V4I2Y2024N42

8. S.Jumayev. (2022). Pedagogical foundations of the development of educational and creative activities in the teaching of molecular biology in the continuing education system. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7309412>

9. Sukhrobjon Zayniyev. (2023). Methodology of preparing students for international olympiads through solution of problems related to the hardy-weinberg law. European International Journal of Pedagogics, 3(05), 16-21. <https://doi.org/10.55640/eijp-03-05-05>

